



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 5 – sinf
adabiyot fanidan I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf adabiyot fanidan I chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Kirish. Adabiyot olamiga sayohat	1		
2.	Abdulla Oripov. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’ri	1		
3.	Abdulla Oripovning “Miltiraydi mitti yulduz”, “Burgut” she’rlari	1		
4.	Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri.Tadqiq qiling	1		
5.	Ertak. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi (1-qism)	1		
6.	“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi (2-qism)	1		
7.	Imom al-Buxoriy hayoti	1		
8.	Hadislar (1-3-hadislar)	1		
9.	Hadislar (4-6-hadislar)	1		
10.	Hadis va hikoya	1		
11.	Nazorat ishi – 1	1		
12.	A.Ko‘chimov. “Binafsha” hikoyasi	1		
13.	Guruhlarda ishlaymiz	1		
14.	A.Ko‘chimovning “Hovlidagi maydoncha” hikoyasi	1		
15.	Matnazar Abdulhakim. “Darsdan so‘ng” she’ri	1		
16.	Choraklik loyiha ishi	1		
17.	Nazorat ishi – 2	1		
18.	Takrorlash, mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish. Adabiyot olamiga sayohat

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevisht, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Assalomu alaykum, aziz o'quvchi! Keling, tanishib olaylik. Mening ismim - Oqilbek, qo'lingizdagi kitobman. Men bilan do'stlashganlar aqlli va ko'ngli toza bo'ladi. Shu vaqtgacha bunaqasini uchratmagansiz-a? Chunki siz endigina boshlang'ich sinfni tamomladingiz. 5-sinf dan boshlab "Adabiyot" degan alohida dunyo bilan tanishasiz. Men bu yo'lda sizga hamroh bo'laman.

Olam juda keng va xilma-xil ajoyibotlarga to'la! Men bilan do'stlashganingizdan keyin bu haqda ko'proq bilib olasiz. Ana shunday ajoyibotlardan biri badiiy adabiyotdir. Yaxshi bilasiz, yolg'on gapirish - juda katta ayb. Buni muallimingiz ham, ota-onangiz ham aytgan, barcha yaxshi kitoblarda shunday yozilgan. Lekin "Adabiyot" olamida bunday gap hamisha ham ayb sanalavermaydi. Misol uchun, quyidagi matnni diqqat bilan o'qing va o'zingiz baho bering.

Oynur ismli qiz Boybek degan bola bilan hoviida gaplashib o'tirardi. Lekin ular boshqalar singari shunchaki gurunglashmasdan, bir-biriga g'alati uydirmalarni aytib berardi.

- Bobomning bo'ylari osmonga tegay-tegay deb turar ekan, - dedi Boybek.

- Mabodo bobomning yelkalariga qandaydir etak tegib turganday bo'lmas ekanmi? - so'radi Oynur.

- Ha, shunday ekan.

- Shu mening bobomning etaklari bo'lgan.

- Unda sening bobom devlardan ham bahaybat ekanlar-da?

- Bo'lmasam-chi!

Shu vaqt ularning yoniga Oybek kelib o'tirdi. Bolalarning gaplarini jimgina tinglab, oxirida:

- Rosa yoig'onchi ekansizlar-ku, uyalmaganlaringni qaranglar! - dedi.
- Nega uylarkanmiz, biz hech kimni aldayotganimiz yo'q! Shunchaki ertak qahramon-larini eslab, turli voqealarni to'qiyapmiz.
- Ertak emish. Topgan ishini-chi!
- Ha, nima bo'пти? Ertak to'qish oson deb o'ylaysanmi?
- Oson bo'lmay, nima?
- Oson bo'lsa, biror nima to'qi-chi, - dedi Boybek.



Oybek ancha vaqt o'ylanib qoldi. Xayoliga hech narsa kelavermagach, xijolat bo'lib dedi: - Sizlar shuncha yolg'on to'qiganlaring bilan hech qanday foydasi yo'q. Mana, men bu-gun gapirgan yolg'onimdan foyda ko'rdim.

- Qanaqa foyda ko'rding? Yolg'onning ham foydasi bo'ladimi? - so'radi Boybek shosha-pisha.
- Bo'lmasa-chi! Kechqurun biznikiga mehmon keladigan ekan. Onam bozordan keltirgan qulupnaylarining bir likopchasini olib qo'ydi-da, bizga tegmaslikni tayinladi.

Uyda ukam Asilbek ikkalamiz edik. Tushga yaqin ukam uxlab qoldi. Mening esa likop-chadagi qulupnaydan yegim kelaverdi. Axiyri yarmini yedim-da, mendan ko'rishmasin deb Asilbekning lablari atrofiga qulupnay surtib qo'ydim. Onam dasturxon tuzayotganida qulupnay kamayib qolganini ko'rib: "Kim tegdi?" deb so'radi.

"Asilbek yegan bo'lsa kerak, men tegmadim", dedim. Onam ukamning labidagi qulupnay dog'ini ko'rib, rosa urishdi. Mehmonlar oldiga ozgina meva qo'yib bo'lmaydi deb qulupnay-larning qolganini ham menga berdi. Yolg'onning foydasi shu-da!

Shu vaqt ularning oldiga yig'lagani ko'zlaridan sezilib turgan Asilbek kelib o'tirdi. Oybek tezgina o'rnidan turib, bolalar bilan xayrlashmay ham ketib qoldi.

- Nega xafasan? - so'radi Boybek.
- Mehmonlarga atalgan qulupnayni yeb qo'yibsan deb onam rosa adabimni berdilar. Aslida men tegmagandim. Balki, Oybek akam yegandir?..
- E, shunaqami? Qo'y, xafa bo'lma. Mana, mening olmamni yeya qol.
- O'zingiz yemaysizmi?
- Men ertalabdan beri to'rt xalta olma yedim, - javob berdi Boybek.
- Mana bu qandlardan ham ola qol, - gapga qo'shildi Oynur.
- Nega? O'zingiz yedingizmi?
- Ehe! Bu - bugun yegan qandlarimning biryuz o'ninchisi, - javob berdi Oynur.

Xo'sh, bu o'rinda kim haqiqiy yoig'onchi ekaniniaytinglar-chi, bolalar? Oynur bilan Boybek yolg'onchimi yoki Oybek? Boybek va Oynurni biroz xayolparast, to'qimachi deyish mumkindir. Unday bo'lsa, yolg'onning xayoliy to'qimadan qanday farqi bor? Buni aniqlash uchun xattaxta (doska)da ikki ustun qilib yozilgan so'zlarga jiddiyroq e'ti-borberish kerak:

Boybek bilan Oynur aslida bo'lgan gaplarni suhbatlari qiziqarli chiqishi uchun, Oybek esa foyda ko'rish

(birovni aldash) uchun to'qib chiqardi. Shuning uchun ham Oybekning gapi yolg'onchilik, Boybek bilan Oynurning gaplari esa xayoliy to'qima edi. Xayolat olami boshqa odamlarga ziyon keltirmaydi, yolg'onningesazararitegadi. Ana endi diqqat bilan qarab, xattaxtadagi Ikki ustun so'zlardan qaysilari badiiy adabiyot-ga aloqadorligini bilib olishingiz mumkin bo'ladi. Badiiy adabiyot namunalari kitoblarda



jamlanadi. Ular esa o‘z sirlarini hammaga ham ochavermaydi. Kitobni suygan, qadriga yetgan bolalargagina bilimlar olami kaliti nasib etadi. Qani,tayyormisiz?Bo‘lmasa,so‘zdunyosibo‘ylab sayohatga ketdik!

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Oqilbekning aytganlaridan qan^xulosaga keldingiz? Izohlang.
2. Yolg‘onning xayoliy to‘qimadan farqini anglay oldingizmi? Tushunganlaringizni asoslashga harakat qiling.
3. Mashhur fizik olim Albert Eynshteynning quyidagi gaplariga diqqat qiling: *“Tasavvur bilimdan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Bilim biz hozir biladigan va tushunadigan narsalargagina tayanadi. Tasavvur esa butun olamni va biz qachonlardir tushunadigan, bilib oladigan narsalarni ham qamraydi”*. Ushbu fikrdan kelib chiqib, tasavvur va bilimning inson hayotidagi o‘rni haqida fikr bildiring. Adabiyot uchun qaysi biri muhimroq ekaniga oydinlik kiriting.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Quyidagilarni daftaringizda to‘ldiring. O‘zingizga yoqqan ertak haqida yozing.

Asar qahramonlari _____	Tushunarsiz so'zlar lug'ati _____
Eng hayajonli lavhalar _____	Taassurotlar _____
Qahramonga tavsiya _____	Asardan olingan hayotiy saboq _____
Asar qahramonlaridan biriga maktub _____	

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Abdulla Oripov. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’ri

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

kutubxonalaridan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oil, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyatida dunyoga kelgan. O‘zi haqida shoir bunday yozadi:

“Men tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir.

..Bahor kelganda havoni o‘t-o‘lanning yoqimli xushbo‘y hidi qoplar, sharros yomg‘ir quyganda biz tog‘ cho‘qqisi unguridagi kichik-kichik g‘orlarga bekinib Olardik. Ungur - tog‘ yonbag‘ridagi o‘yiq joy. O‘sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil, bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, ko‘ksimni to‘ldirib nafas olardim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go‘zal bo‘lar edi. Tim qora osmonda qo‘l cho‘zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi.

Hayotimda bunday go‘zal manzaralarni keyin uchrata olmadim...

She‘rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida chop etilgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika gazetasida “Qushcha” degan she‘rim bosilib chiqqan... Bu orada qanchadan qancha she‘rlarim, to‘plamlarim chop etildi. Biroq ilk she‘rim bosilib chiqqan o‘sha daqiqalar, uning quvonchi sira-sira esimdan chiqmaydi”.

Mana o'sha she'r bilan tanishing:

Qushcha

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga.
Bizda bahor, gullar – barchasi.
Bilsang, men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.

Abdulla Oripov O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq shoiri kabi yuksak unvonlarga
sazovor bo'lgan. U O'zbekiston Respublikasi
Davlat madhiyasi matnining muallifi.

Shoir 2016-yil 5-noyabr kuni vafot etgan.
Respublika gazetasida ilk she'd bosilib chiqqan
quvonchli daqiqalar nima uchun shoirning
yodida umrbod qoldi deb o'ylaysiz?

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning
quyidagi fikrlariga diqqat qiling:

"Biz, turkistonliklar o'z Vatanimizni

Jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar

Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini,

eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va

muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson
yerlarga o'z Vatamlarin tashlab hijrat qilurlar edi".

Qadrlil o'quvchi, nima uchun ota-bobolarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga surgan?

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo?

Nechun Vatan deya yer-u osmonni

Muqaddas atayman, atayman tanho?

Aslida dunyoda tanho nima bor?

Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?

Yoki quyoshimi sevgimga sabab?

Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,

Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men

O'paman: "Tuprog'ing bebaho, Vatan..."

Aslida tuproqni odil tabiat

Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.

Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat?

O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni?

Sababini aytgin, desalar menga,

Shoirona, go'zal so'zlardan oldin

Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda

Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,

Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,

Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar,

Mayli, gullasin,

Bog' unsin mangu muzda ham, ammo,

Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun

Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!



To‘tiyo - oldingi paytlarda ko‘z og‘rig‘iga qarshi yoki ko‘zni ravshan qilish uchun surtiladigan dori. She’rda juda aziz, muqaddas yoki noyob narsani ko‘zga surish ma’nosida qo‘llanmoqda.

Qashqar - Xitoyning g‘arbiy qismidagi shahar. O‘zbek shoiri Furqat sayohat bilan borib, o‘sha yerda oila qurib, qolib ketgan. Furqat doimo Vataniga qaytish umidi bilan yashagan.

Furqat - asl ismi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li. 1859-1909-yillarda yashab ijod etgan taraqqiyparvar shoir, publitsist.

Eskimu (eskimos) - Osiyoning shimoLi-sharqi, Shimoliy Hijrat - o‘z yurtini tark etib, Amerika va Grenlandiyada yashovchi xalq. boshqa joyga ketish, ko‘chish.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Sizga Vataningizning suratini chizib bering deyishsa, dastlab xayolingizga nimalar keladi? Nimalarni qog‘ozga tushirar edingiz? Tasvirda qanday ranglardan foydalanardingiz? Nima uchun?

2. Shoirning Vatan, yer, osmon kabi tushunchalarni muqaddas va yagona deb hisoblashi sababi nimada?

3. Sizningcha, shoir Vatanni faqat paxtasi, quyoshi, bog‘-u rog‘iari uchun yaxshi ko‘radimi yoki buning boshqa sabablari ham bormi? Misol sifatida qanday sabablarni ayta olasiz?

4. Umr bo‘yi ona yurt sog‘inchi bilan yashagan ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?

5. Shoiridan O‘zbekistonni nima uchun sevishini so‘rashganda u qanday javob berdi? Nega u javob berishdan oldin: *"Men ta'zim qilaman ona xalqimga"*, demoqda?

6. So‘nggi banddagi *"Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo‘lsa, kechirma as/o/"* xitobining mazmuni haqida mulohaza yuriting. O‘ylab ko‘ring, yurt kimlarni va nima uchun kechirmaydi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Guruhlarga bo‘lining. Guruhdoshlaringiz bilan O‘zbekistonning so‘lim tabiati, qadimiy shaharlari, odamlari va betakror madaniyati aks etgan suratlardan to‘plang (10-15 tacha). Rasmlar orasida o‘zingiz olgan suratlar ham bo‘lsin. Har bir rasm ostiga izoh yozing. To‘plagan suratlaringiz asosida **“Tuproq‘ing bebaho, Vatan...”** mavzusida kichik albom tayyorlang. Albom tayyor bo‘lgach, sinfda taqdimot o‘tkazing.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

48 listdan iborat adabiyot fanidan 5-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quyidagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar